



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



SAMARQAND – 2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR


XALQARO ILMIY JURNALI

“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Juliboy ELTAZAROV

f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Roxila RUZMANOVA

f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti rektori (O‘zbekiston);

Hakim XUSHVAQTOV – f-m.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);

Akmal AHATOV – t.f.d., professor,
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha
prorektori (O‘zbekiston);

Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Suyun KARIMOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Musa YULDASHEV – f.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor
(O‘zbekiston);

Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Hotam UMUROV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor
(O‘zbekiston);

Mardon BOLTAYEV – dotsent (O‘zbekiston);

Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya);

Abdusalam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya);

Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya);

Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya);

Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH);

Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya);

Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon);

Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya);

Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Dilshod XURSANOV – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Shahnoza XUSHMURODOVA – DSc, professor
(O‘zbekiston);

Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent
(O‘zbekiston);

Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston);

Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston);

Mas’ul muharrir: **PhD, dotsent Zokir
BAYNAZAROV** (O‘zbekiston);

Texnik xodim: **Raxmatulla SHOKIROV**
(O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Хотам УМУРОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мардон БОЛТАЕВ – доцент (Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – DSc, профессор
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир
БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)**

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ
(Узбекистан)**



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Khotam UMUROV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. Mardon BOLTAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJAĞLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara İSLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Hotam UMUROV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Mardon BOLTAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY TILLAR VA ADABIYOT TADQIQOTLARI TARIXI

Muhabbat KURBANOVA, Sevara RAHMATOVA

SHE’RIYATDA TIL BIRLIKLARI TAKRORI VA KONNOTATSIYA 8

Saparbek MIRZABAEV

QARAQALPAQ ESSE TEKSTLERINDE TENEWLERDİN STILLIK ÖZGESHELIKLERI.. 16

Faruk TOPRAK

SEMERKAND ÜZERİNE SÖYLENMİŞ BAZI ARAPÇA ŞİİRLER..... 24

Rohila RUZMANOVA

TÜRKÇENİN OKUTULMASIYLA İLGİLİ GÖRÜŞLER 32

Emrah YILMAZ

1926’DAN 2026’YA TÜRKOLOJİ’NİN ASIRLIK İRADESİ..... 38

SHOKIROV Raxmatulla, TOXIROVA Sarvinoz

SADRIDDIN AYNİY VA TURKIY ADABIYOT: MA’RIFATPARVARLIK VA UYG‘UNLIK-
NING MADANIY KO‘PRIGI 53

ESHMAMATOVA Mahliyo

TURKIY TILLAR PARALLEL KORPUSINI YARATISHDA TIL VA NUTQ BIRLIKLARI
TADQIQI..... 65

Dilorom MUMINOVA

TURKIY ADABIYOTDA G‘AZAL JANRI RIVOJIDA NOMALARNING O‘RNI..... 73

XUSHBOQOV Qobilbek

SHAFOAT RAHMATULLO TERMIZIY SHE’RIYATIDA FONETIK TAKRORLAR 79

DUSMURATOV Qahramon

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI 87

BOYMIRZAYEV Akbarali, NAZIROV Salimbek

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BARQAROR BIRIKMALARNING PARALLEL
LUG‘ATINI TUZISH MASALALARI 92

ATABAYEVA Guljahon

HAYKU JANRI VA UNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI 98

ERNAZAROV Rahmon, MAVLONOV Ahmadjon

OQ VA QORA LEKSEMASI TAHLILI 105

ЧОРИЕВ Баходир

ВОКАТИВНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ КАК СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ
СОСТОЯНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.П. ЧЕХОВА И А. КАХХАРА..... 112

DJUMAMURATOV Kuanishbay

FRAZEOLOGIK BIRLIK LARNING TURLI TIZIMLI TILLARDA NAMOYON BO‘LISHI-
NING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 116

MUXAMMADIYEV Nodir

QASHQADARYO SHEVASIGA XOS O‘ZLASHMALAR TAHLILI 122

Zokir BAYNAZAROV, Zarifa XUSANOVA

TINISH BELGILAR TARIXI VA ULARNING YOZMA MATNLARDA QO‘LLANILISH
XUSUSIYATLARI..... 126

TURKIY XALQLARNING IJTIMOYIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI

Rustam BERDIYEV

MARKAZIY OSIYODA KIDAN VA QORAXITOYLAR DAVRI TARIXIDAN 141

Normahammad XOLMATOV, Zarifa XOLMATOVA, Rufat KARIMOV

ISHLAB CHIQARISH IQTISODIYOTINING ILK KURTAKLARI (ZARAFSHON VOHASI)
..... 149

Odil ERGASHEV

O‘ZBEKISTONNING TOSH DAVRI USTAXONALARI 157

Mirolim BERDIQULOV

JANUBIY O‘ZBEKISTON TO‘DA-1 NEOLIT DAVRI MAKONI..... 163

Sunnatillo RASHIDOV

KARMANA HUDUDINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI 170

Ulug‘bek UMAROV

TAQINCHOQLAR - IJTIMOYIY TENGSIZLIK KO‘RSATKICHI 177

Saydazim AMONOV

KESH VOHASINING O‘RTA ASRLAR RUSTOQLARI 183

Anvar UMAROV

TURKMANLARNING JOYLASHISHI TARIXI (ZARAFSHON VODIYSI MISOLIDA).... 188

AZIZ MUSHTARIY!

Bu sonda turkologiya, tarix, tilshunoslik va adabiyot sohalaridagi original tadqiqotlar o‘rin olgan. She‘riyatdagi til birliklarining takrori va ma‘nodoshligi, Samarqand haqidagi arab she‘rlari va tinish belgilarining tarixiy rivojlanishi tadqiq qilinadi; turkiy ta‘lim va til ta‘limiga oid tanqidiy qarashlar, turkologiya fanining 1926-2026 yillardagi asriy iroda va taraqqiyot jarayoni o‘quvchilarimiz e‘tiboriga havola etiladi. Sadreddin Ayniyning adabiyotdagi o‘rni kabi mavzular muhokama qilinadi. Nomalarning g‘azal janridagi o‘rni, Shafolat Rahmatulloh Termiziyning fonetik takrorlari, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanining ko‘p tarmoqli talqinlari ham o‘quvchiga taqdim etilgan. Bundan tashqari, turk shevalarining parallel korpus tadqiqotlari, ingliz va o‘zbek tillaridagi barqaror birikmalarning parallel lug‘ati, hayku janrining o‘zbek adabiyotiga ta‘siri baholanadi. Tarix va arxeologiya sohasida Kiden va Qoraxitoy tarixi, ishlab chiqarish xo‘jaligining dastlabki bosqichlari, O‘zbekistondagi tosh davri ustaxonasi, Karmanadagi arxeologik tadqiqotlar, Kesh vohasining o‘rta asr xarobalari va turkmanlarning manzilgohlari tarixiga oid yangi topilmalar o‘rtoqlashmoqda. Jurnalimizning ushbu sonidagi tadqiqotlar turkologiya va unga aloqador fanlar bo‘yicha yangi izlanishlarga ilhom beradi, degan umiddamiz...

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

This issue includes original research in the fields of Turkology, history, linguistics and literature. While the repetition and connotation of language units in poetry, Arabic poems on Samarkand and the historical development of punctuation marks are examined; critical views on the teaching of Turkish and language education, and the century-long will and development process in the field of Turkology from 1926 to 2026 are presented to the attention of our readers. Topics such as the place of Sadreddin Ayni in literature are discussed. The role of nomos in the ghazal genre, the phonetic repetitions of Shafolat Rahmetullah Termizi and multidisciplinary interpretations of Iqbol Mirzo's novel "Bonu" are also presented to the reader. In addition, parallel corpus studies of Turkish dialects, a parallel dictionary of permanent elements in English and Uzbek languages, and the effects of the Haiku genre in Uzbek literature are evaluated. In the field of history and archaeology, new findings are shared on the history of Kiden and Karahitay, the early stages of production economy, the stone age workshop in Uzbekistan, the archaeological research in Karmana, the medieval ruins of the Kesh oasis and the settlement history of the Turkmens. We hope that the studies in this issue of our journal will inspire new research in Turkology and related disciplines...

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Bu sayımızda, Türkoloji, tarih, dil bilimi ve edebiyat alanlarında özgün araştırmalar yer almaktadır. Şiirde dil birimlerinin tekrarı ve çağırışımı, Semerkant üzerine Arapça şiirler ve noktalama işaretlerinin tarihi gelişimi incelenirken; Türkçenin okutulması ve dil eğitime ilişkin eleştirisel görüşler ile 1926'dan 2026'ya uzanan Türkoloji alanındaki asırlık irade ve gelişim süreci okuyucularımızın ilgisine sunulmaktadır. Sadreddin Ayni'nin edebiyattaki yeri gibi konular ele alınmaktadır. Gazel türünde namelerin rolü, Şafolat Rahmetullah Termizi'nin fonetik tekrarları ve Iqbol Mirzo'nun "Bonu" romanına yönelik multidisipliner yorumlar da okuyucuya sunulmaktadır. Ayrıca, Türk lehçelerinin paralel korpus çalışmaları, İngiliz ve Özbek dillerindeki daimi unsurların paralel sözlüğü ile Özbek edebiyatında Haiku türünün etkileri değerlendirilmiştir. Tarih ve arkeoloji alanında ise Kiden ve Karahitaylılar tarihi, üretim iktisadının ilk aşamaları, Özbekistan'daki taş devri atölyesi, Karmana arkeolojik araştırmaları, Keş vahasının Orta Çağ kalıntıları ve Türkmenlerin yerleşim tarihi üzerine yeni bulgular paylaşılmaktadır. Dergimizin bu sayısında yer alan çalışmaların, Türkoloji ve ilgili disiplinlerde yeni araştırmalara ilham kaynağı olmasını temenni ederiz...

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

В этом выпуске представлены оригинальные исследования в области тюркологии, истории, лингвистики и литературы. В данном номере рассматриваются повтор и синонимия языковых единиц, исследуются арабские стихи о Самарканде и историческое развитие знаков препинания; вниманию наших читателей представлены критические взгляды на преподавание турецкого языка и языковое образование, а также вековой процесс развития в области тюркологии с 1926 по 2026 год. Обсуждаются такие темы, как место Садреддина Айна в литературе. Рассмотрены роль наме в развитии жанра газель, фонетические повторы Шафоата Рахметуллы Термизи и всесторонние интерпретации романа Икбола Мирзо «Бону». Также оцениваются параллельные корпусные исследования турецких диалектов, параллельный словарь устойчивых словосочетаний в английском и узбекском языках и влияние жанра хайку на узбекскую литературу. В области истории и археологии авторы делятся новыми открытиями по истории Кидена и Каракитая, исследованиями ранних этапов производительной экономики, мастерской палеолита в Узбекистане, археологическими исследованиями в Кармане, находками средневековых руин оазиса Кеш и истории поселений туркмен. Мы очень надеемся, что включённые в данный выпуск журнала исследования вдохновят вас на новые изыскания в тюркологии и смежных дисциплинах...

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

TURKIY TILLAR VA ADABIYOT TADQIQOTLARI

SHE’RIYATDA TIL BIRLIKLARI TAKRORI VA KONNOTATSIYA

Muhabbat KURBANOVA,

O‘zMU Filologiya fanlari doktori, professor
(Toshkent, O‘zbekiston)

E-mail: qurbonova2007@mail.ru

 **ORCID:** 0000-0002-2303-0777

Sevara RAHMATOVA,

O‘zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich
tayanch doktoranti (Toshkent, O‘zbekiston)

E-mail: ummuabdulaziz418@gmail.com

 **ORCID:** 0009-0008-5791-5574

 **DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15761787>

Annotatsiya: Ushbu maqolada takrorning o‘ziga xos xususiyatlari va uning badiiy matnda konnotativ ma’nolarni ifodalashdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. Shu bilan birga taniqli o‘zbek shoiri Eshqobil Shukur she’rlarida qo‘llangan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik birliklar takrorining badiiy matn ta’sirchanligi, ohangdorligi va matn qismlarining yaxlitligini ta’minlashdagi o‘rni misollar orqali tahlilga tortiladi. Xususan, unli va undosh tovushlar uyg‘unligiga asoslangan alliteratsiya va assonans, geminatsiya kabi fonetik usullarning badiiy matn ekspressiv-emotsionalligini oshirishdagi roli bayon etiladi. Shoir she’rlarida takror san’atini hosil qilishda leksik birliklar takroridan samarali foydalanib so‘z ma’nolarining bo‘rttirilishiga, ta’kidni kuchaytirishga erishganligi asoslanadi. Shuningdek, shoir ijodiy ishlarida morfologik vositalar – egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari, fe’lning buyruq-istak mayli shakllarini takror qo‘llash orqali o‘zgacha konnotativ bo‘yoqlar hosil qilinganligi izohlanadi. Eshqobil Shukur she’rlarining ta’sirchanligini oshirishda hamda lirik qahramon subyektiv munosabatini ifodalashda sintaktik birliklar, xususan, gaplar, gap bo‘laklari, so‘z birikmalari, undalmalar takrorining tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Takror, konnotatsiya, emotsionallik, fonetik vositalar, leksik birliklar, morfologik vositalar, sintaktik birliklar.*

ПОВТОР ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В ПОЭЗИИ И КОННОТАЦИЯ

Аннотация: В статье рассматриваются специфические особенности повтора и его значение в выражении коннотативных значений в художественном тексте. При этом на примерах анализируется роль повтора фонетических, лексических, морфологических и синтаксических единиц, используемых в стихотворениях известного узбекского поэта Эшкобила Шукура, в обеспечении экспрессивности, мелодичности и целостности частей текста. В частности, описывается роль таких фонетических приемов, как аллитерация и ассонанс, геминация, основанная на гармонии гласных и согласных, в повышении выразительности и эмоциональности художественного текста. Показано, как поэт достигает гипертрофикации значений слов и усиления акцента, эффективно используя повторение лексических единиц, создавая поэтическую фигуру повтора в своих стихотворениях. Также отмечается, что поэт создаёт особые коннотативные оттенки посредством повтора морфологических средств – притяжательных, падежных аффиксов и суффикса

множественного числа и форм глагола повелительного наклонения. Анализируется роль синтаксических единиц, в частности, повторов предложений, членов предложений, словосочетаний и обращений в усилении экспрессии стихотворений Эшқобила Шукура и выражении субъективного отношения лирического героя.

Ключевые слова: *повтор, коннотация, эмоциональность, фонетические средства, лексические единицы, морфологические средства, синтаксические единицы.*

REPETITION AND CONNOTATION OF LANGUAGE UNITS IN POETRY

Abstract: This article discusses the specific features of repetition and its importance in expressing connotative meanings in a literary text. At the same time, the role of the repetition of phonetic, lexical, morphological and syntactic units used in the poems of the famous Uzbek poet Eshqobil Shukur in ensuring the expressiveness, melodiousness and integrity of text parts is analyzed using examples from the poet's poems. In particular, the role of phonetic methods such as alliteration and assonance, gemination, based on the harmony of vowels and consonants, in increasing the expressiveness and emotionality of a literary text is explained. It is based on the fact that the poet effectively used the repetition of lexical units in creating the art of repetition in his poems to exaggerate the meanings of words and strengthen emphasis. It is also explained that in the poet's creative works, special connotative colors are created by repeatedly using morphological means - possessive, accusative, plural suffixes, imperative-intentional forms of the verb. The role of syntactic units, in particular, the repetition of sentences, fragments of sentences, word combinations, and invocations in enhancing the impact of Eshqobil Shukur's poems and expressing the subjective attitude of the lyrical hero is analyzed.

Key words: *Repetition, connotation, emotionality, phonetic means, lexical units, morphological means, syntactic units.*

Kirish. Takror til birliklarining nutqda takror qo‘llanishiga asoslangan lingvostilistik hodisadir. Takror til birligining emotsional-ekspressiv xususiyatini yuzaga chiqaruvchi, matnda konnotativ ma‘noni hosil qiluvchi vosita sifatida nihoyatda ahamiyatli. Til birliklari takror qo‘llangan har qanday jumla, matn ta’sirchan bo‘ladi. A.Abdullayev qayd etganidek, “takrorning hamma turi (tovush takrori, so‘z takrori va gap takrori), odatda, ma‘noni kuchaytirish, ta’kidlash uchun xizmat qiladi”[1, 70]. M.Yo‘ldoshev, Q.Yadgorovlar ham ushbu xulosani tasdiqlashadi. Ularning fikricha, “Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta’sirchanligi ortadi”[2, 97]. Adiblar takrorning mana shu xususiyatini inobatga olib, badiiy asar yozishda uning barcha turlaridan samarali foydalanishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqola obyekti sifatida Eshqobil Shukurning “Hamal ayvoni” (2003) va “Sochlari sumbul-sumbul” (1988) asarlaridagi she’rlarida takror qo‘llangan til birliklari tanlab olindi. Maqolada tavsiflash, semantik-sintaktik, kontekstual-matniy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

O‘zbek tilshunosligida takrorning nutqda ekspressiv-emotsionallikni ifodalashdagi roli masalasi bo‘yicha A.Abdullayev bildirgan ilmiy xulosalar nihoyatda ahamiyatli. Olim, garchi *konnotatsiya* terminidan foydalanmagan bo‘lsa-da, takror nutqning ekspressiv-emotsionalligini ta’minlovchi vosita ekanligini asoslab bergan. U o‘zbek tilida ekspressivlik ifodalashning usullaridan biri sifatida analitik takrorni ko‘rsatgan. Olimning fikricha, “bir o‘zakli so‘zlarning qaratqich-qaralmish formasida (*go‘zallarning go‘zali*), chiqish kelishigi formasi yordamida

(kamdan – kam, qanchadan qancha, kuchaygandan kuchaygan), savol-javob formasida (gilammisan – gilam, yigitmisan–yigit), sifatdoshning egalik formasi yordamida takrorlash bilan (yashnaganim yashnagan) belgining kuchli darajasi ifodalanadi”[1, 4].

Takror til birliklarining emotsional xususiyatini kuchaytiruvchi vosita ham hisoblanadi. Konnotativ ma’noga ega bo’lgan har qanday birlik nutqda takror qo’llanganda uning bu xususiyati yanada kuchayadi. Bunday vaqtda ushbu til birligining ta’sir quvvati oshadi. Takror emotsionallikni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajarganda til birligi orqali ifodalangan ma’no bo’rttiriladi. Shu sababli badiiy nutqda ekspressiv-emotsionallikning ifodalanshi masalasini o’rganishda takrorning o’rniga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo’ladi.

Takror til birligi anglatgan ma’noni aktuallashtirish vazifasini ham bajaradi. Adib badiiy asarda til birligini takror qo’llash orqali uni aktual bo’lakka aylantiradi, natijada bu bo’lak jumlaning remasi vazifasini bajarib, o’quvchi e’tiboriga tushadi. Shunga ko’ra ayrim tilshunoslar takrorni til birliklarini aktuallashtiruvchi vosita sifatida ham tavsiflashadi. Masalan, T.A.Voronsova rus tilida biror bir gap komponentidagi muhim bo’lakni aktuallashtirishda so’z tartibi, maxsus aktualizatorlar (*то, такой, видишь, этого, тот, там, из этой кавычки*) hamda takror muhim o’rin tutishini ta’kidlaydi [3, 127].

Ma’lumki, takrorning konnotativ vazifasi nutqda namoyon bo’ladi. Badiiy adabiyotda takrorning manbasi she’riyat sanaladi. Shoir she’r yozar ekan, til birliklari takroriga e’tibor qaratmasligi mumkin emas. Takror she’r misralarida ohangdorlikni, ta’sirchanlikni, estetiklikni yuzaga keltiradigan vositadir.

Takror til birliklarining nutqiy funksional imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi uslubiy vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Takrordan, ayniqsa, badiiy adabiyotda asar matnida ta’sirchanlikni hosil qilishda, tasviriylilikni kuchaytirishda, ta’kidni oshirishda, voqelikni bo’rttirishda keng foydalaniladi. Badiiy matnda yozuvchi bu maqsadlarga erishishda takrorning turli ko’rinishlarini qo’llaydi. Istedodli o’zbek shoiri Eshqobil Shukur ham takrorlardan keng va mohirona foydalanib o’z ijod na’munalarining ta’sirchanligi, ohangdorligi va xalqchilligi oshirishga erishgan. Shoir o’tgan asrning 80-yillarida she’riyat maydoniga o’zining xalqona ijod na’munalari bilan kirib keldi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Eshqobil Shukur o’z she’rlarida takror turlaridan samarali foydalanib, poetik matnning ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Uning she’rlarida qo’llangan takror birliklarni qanday sath birligi ekanganligiga ko’ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) fonetik takror; 2) leksik takror; 3) morfologik takror; 4) sintaktik takror.

Ma’lumki, adiblar o’z asarlarida ko’pincha fonetik birliklar takrori orqali konnotativ bo’yoqni hosil qiladilar. M.Yo’ldoshev to’g’ri qayd etganidek, “She’riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho’zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so’zlarni noto’g’ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi”[4, 41, 5,56-58]. Eshqobil Shukur ham she’rlarida ushbu fonetik usullardan samarali foydalanib, ularning konnotativligini ta’minlagan.

Shoir she’rlarida fonetik takrorning quyidagi turlari uchraydi:

1. She’rda turli so’zlardagi unli yoki undosh tovushni takrorlash orqali unli va undosh tovushlar takrori hosil qilinadi.

2. She’rda so’z tarkibidagi unlini ikkilantirish (yoki cho’zib talaffuz qilish) orqali unli tovush takrori hosil qilinadi.

3. She’rda so’z tarkibidagi undoshni ikkilantirish orqali undosh tovush takrori hosil qilinadi.

Eshqobil Shukur qator she’rlarida muayyan unli yoki undosh tovushning turli soʻzlar tarkibida takrorlab soʻz ma’nosi ustiga turli konnotativ ma’nolar yuklaydi. Masalan:

Sevgilim, sen gulsan, sevgining guli,
Senga boʻylay olmas na davlat, na shon... (“Sevgilim...”)
Beshikka belarlar oʻsha Bir kunni.
Bobolar kaftiga toʻlar duolar.
O, bizning Bir kun kelar... (“Bir kun”)

Berilgan misollarda s va b undoshlari turli soʻzlar boshida takrorlanib kelgan. Natijada she’r misralariga bu soʻzlarga ta’kid konnotatsiyasi yuklanib, ularning ta’sirchanligi ortgan hamda misralar orasida intonatsion bogʻliqlik yuzaga kelgan.

Badiiy adabiyotda unlilar uygʻunligini yuzaga keltiruvchi bunday tovush takroriga asoslangan san’at turi *assonans*, undoshlar takrori esa *allitratsiya* deb nomlanadi [6, 49].

Shoir she’rlarida soʻzlar tarkibida muayyan unli yoki undosh tovushlarning ikkilantirilishi (*aa, oʻoʻ, ii; vv, tt, qq, yy* tarzida) orqali konnotatsiyaning ifodalanishi kuzatiladi. Tovushlarning bu usulda takrorlanishi natijasida matnda ajablanish, hayrat, tahsin kabi qoʻshimcha konnotativ ma’nolar ifodalanadi. Masalan:

Derazangdan nari bepoyon, bedil
Yastanib yotadi shunday mangulik:
“Oʻ, yana oʻshami... Oʻsha... Eshqobil”.
Oʻoʻ yanaa oʻshaami oʻshaa Eshqobil. (“Tegrangda yer boʻlib aylanar zamon...”)

Ushbu she’rda *oʻ* undovi, *oʻsha* olmoshi, *Eshqobil* atoqli oti tarkibidagi *oʻ, a, i* unli tovushlari ikkilantirilgan. Natijada bu soʻzlarga taajjub, hayrat konnotativ ma’nolari qoʻshilgan. Unlilarning bu tarzda takrorlanishi ular qatnashgan soʻz ma’nosining boʻrtirilishiga, soʻzga ta’kid ma’nosini qoʻshishga ham olib kelgan. A.Haydarov toʻgʻri qayd etganidek, “Fonetik vositalarni ataylab takrorlash orqali soʻz san’atkorlari oʻz tasvir bayonining kuchini oshiradilar, his-tuygʻularini boʻrttirib koʻrsatadilar” [7,11]. Bu holat Eshqobil Shukurning she’rlarida unli va undosh tovushlar takrorida ham koʻzga tashlanadi.

Ushbu she’rning yana bir xarakterli jihati shundaki, misralarda ham unli, ham undosh tovushlar takrori orqali *assonans* va *alliteratsiya* hosil qilingan [8, 455].

Eshqobil Shukur she’rlarida leksik takrorga ham alohida oʻrin berilgan. Ma’lumki, poetik matnda leksik birliklar konnotatsiyani hosil qiluvchi muhim birliklar sifatida ishtirok etadi. D.M.Yarbilova bu haqda fikr yuritir ekan, “leksik, leksik-morfologik va leksik-sintaktik takrorlarning tayanch vazifasi obrazli baholashni kuchaytirishi, bunday takrorlar individual-muallif yoki milliy-madaniy konnotatsiyalar sanalishi” ni qayd etadi. [9, 572-574].

Darhaqiqat, leksik takrorlar muallifning individual takrorlari sanaladi. Bunday takror milliy-madaniy xarakterdagi birliklar takroridan iborat boʻlsa, madaniy konnotatsiya hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida nutqda konnotatsiyaning leksik birliklar orqali ifodalanishi masalasi turli matnlar misolida oʻrganilgan. Jumladan, M.Yoʻldoshev badiiy matndagi poetik aktuallashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, polisemantik, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlarga alohida diqqatni qaratish lozimligini qayd etadi [10, 217].

S.Maksumova ham E.Vohidov she’rlarida konnotatsiyaning leksik usulda sinonim, antonim, omonimlar, koʻpma’noli soʻzlar orqali hosil qilinganligini aniqlagan. Uning fikricha, “leksik birliklarni koʻchma ma’noda qoʻllash, ularning sinonimik qatorlaridan oʻz oʻrnida

foydalanish, omonim, antonim soʻzlarni estetik qiymat kasb etishga yoʻnaltirish orqali badiiylilikni taʼminlaydi, matnning taʼsir kuchini oshiradi” [11, 46].

